TARBIYADA OTA-ONA QANDAY O‘RIN TUTISHI KERAK?

Jumabayev Amir Darmenbay uli
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, Milliy tarbiyaning raqamli pedagogik ta’minoti ilmiy-tadqiqot bo‘limi katta ilmiy xodimi

Annotatsiya. Maqolada ota-onalarning farzand tarbiyasi va hayotiga haddan tashqari aralashuvi bilan bog‘liq “vertolyot” ota-onalik hodisasi tahlil qilingan. Bunday ota-onalarning farzandlarini turli qiyinchilik va muammolardan ortiqcha himoya qilishi, ularning xatolariga yo‘l qo‘ymaslikka intilishi hamda maktab va o‘qituvchilar faoliyatiga haddan tashqari aralashuvi bolaning mustaqil fikrlashi, mas’uliyat hissi va hayotiy qiyinchiliklarga bardoshliligini shakllantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi yoritilgan. Maqolada ota-onalik burchining mazmuni farzandni faqat himoya qilish emas, balki uni mustaqil qaror qabul qilish, qiyinchiliklarni yengib o‘tish va hayotiy maqsadlariga erishishga tayyorlashdan iborat ekanligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: “vertolyot” ota-onalar, ota-onalik, farzand tarbiyasi, ota-ona mas’uliyati, haddan tashqari himoya, mustaqillik, mas’uliyat, hayotiy qiyinchiliklar, ota-ona va maktab hamkorligi, o‘qituvchi, tarbiya.

Аннотация. В статье рассматривается феномен так называемого «вертолётного» родительства, связанный с чрезмерным вмешательством родителей в воспитание и жизнь своих детей. Освещается влияние чрезмерной защиты детей от различных трудностей и проблем, стремления родителей предотвращать любые ошибки ребёнка, а также чрезмерного вмешательства в деятельность школы и учителей на развитие самостоятельности, чувства ответственности и способности ребёнка справляться с жизненными трудностями. Подчёркивается, что сущность родительского долга заключается не только в защите ребёнка, но и в подготовке его к самостоятельному принятию решений, преодолению трудностей и достижению жизненных целей.

Ключевые слова: «вертолётные» родители, родительство, воспитание детей, родительская ответственность, чрезмерная опека, самостоятельность, ответственность, жизненные трудности, сотрудничество родителей и школы, учитель, воспитание.

Abstract. The article examines the phenomenon of so-called “helicopter parenting”, which is associated with excessive parental in-

volvement in children's upbringing and lives. It highlights how excessive protection from various difficulties and problems, the desire to prevent children from making mistakes, and excessive interference in the activities of schools and teachers can negatively affect the development of children's independence, sense of responsibility, and ability to cope with life challenges. The article emphasizes that the essence of parental responsibility is not limited to protecting children but also involves preparing them to make independent decisions, overcome difficulties, and achieve their life goals.

Keywords: helicopter parents, parenting, child upbringing, parental responsibility, overprotection, independence, responsibility, life challenges, parent-school cooperation, teacher, education.

So‘nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda ayrim ota-onalarning maktabga kelib, o‘z farzandiga ta’lim va tarbiya beradigan o‘qituvchisini o‘quvchilar ko‘zi o‘ngida haqorat qilib, hatto urush darajasiga yetayotganini ko‘rib, hayotdagi kuzatuvlarim va ko‘nglimdan kechgan ayrim mulohazalarimni qog‘ozga tushirishga qaror qildim. Ba’zi ota-onalar uchun bu hayot go‘yo faqat farzandlari yon-atrofida aylanib yurish, ularni qanday qilib bo‘lmasin himoya qilishdan iboratday tuyuladi. Ularni, ta’bir joiz bo‘lsa, zamonaviy ibora bilan “vertolyot” ota-onalar, deb atash mumkin. Ularning ishi faqat himoya va nazorat qilishdan iborat. Bolalari bilan bog‘liq biror muammo tug‘ilib qolsa, ularni himoya qilish va qutqarish uchun doimo “yerga qo‘nish”ga shay turishadi. Biror kun yo‘qki, ular farzandini tergamagan, ular uchun xos va odatiy bo‘lgan holatlardan go‘yo “asrab qolmasa”. Farzandlari bilan bog‘liq nimadir yuz berishi bilanoq, ular darrov o‘sha yerga yetib borib, o‘ylab-netib o‘tirmay, o‘qituvchisi bo‘ladimi yoki birga o‘ynayotgan o‘rtog‘imi, ularni o‘ziga “dushman” bilib, himoya qilishga o‘tadi. To‘g‘ri, farzandlarimiz uchun e’tibor kerak va ular bunga loyiq ham. Lekin hayot tajribalari farzandlarga bunday munosabat ko‘p holatlarda salbiy natijalarga olib kelayotganini ko‘rsatmoqda.

Bunday “mehribon” ota-onalar o‘z farzandlarini, eng avvalo, yengil hayotga o‘rgatib qo‘yishadi, pirovardida, bola kelajakda mustaqil hayot kechirishga tayyor bo‘lmaydi: o‘z yo‘lini topa olmaydi, turmush qiyinchiliklari, o‘nqir-cho‘nqirlariga dosh bera olmaydi. Ajablanarlisi shundaki, “vertolyot” ota-onalar tashqaridan qaraganda namunali ota-onaday ko‘rinadi. Ular farzandlaridagi har qanday katta-kichik holatga e’tibor berishadi. Ammo real voqelik yoki hayot har doim ham qutqaruv tamoyili asosida ishlamaydi. Mehnat jamoasi, undagi munosabatlar, ro‘zg‘or, oila, farzandlar va boshqa turmush tashvish va ikir-chikirlari doimo bor bo‘lgan va bu hamma uchun majburiy. “Vertolyot” ota-onalar farzandlarini doimo “xavfsizlik”da saqlashga intiladi va bun-

ing natijasida ularni hayotda erkin va mustaqil yashashga tayyorlay olishmaydi. Ba'zi "vertolyot" ota-onalar o'z farzandlarini himoya qilish uchun ikkinchi tomonni haqorat qilish, hatto, jismoniy kuch ishlatishgacha borishyapti. Bunday ota-onalar o'z farzandlari uchun go'yo yaxshilik qilayotganday, ular uchun mukammal dunyo yaratmoqchi bo'lishadi. Bu ular uchun go'yo farzandlari hech qachon kurash, noqulaylik va umidsizlikka duch kelmaydigan dunyo. Ya'ni, bolalari garchi bunga munosib bo'lsa-bo'lmasa, turli eng yaxshi maqtov (tavsifnoma)lar olib berish, qanday bo'lmasin yuqori bahoga o'qitish, mukofotlar olishga o'rgatib qo'yishdan iborat. Ba'zi ota-onalar farzandlarini shunchalik qattiq himoya qilishadiki, go'yo qiruvchi vertolyotlarga aylanib, bolalariga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan har qanday "unsur"larni nishonga olishadi. Og'zaki "aqlli bomba"lar bilan qurollangan bu "mudofaa tizimi" bolalaridan intizom, axloq yoki muvaffaqiyat kutgan har qanday kishini yer bilan yakson qilishga tayyor turishadi.

Kelajakda "vertolyot" ota-onalar farzandlarini ishga qabul qiladigan korxonalar ularning sifatsiz ishlashi natijasida yuzaga keladigan muammolar uchun ota-onalari tomonidan o'tkaziladigan bosimdan cho'chimasligi shubhasiz. Mukammal yozilgan tavsifnoma va bejirim maktab shahodatnomasi inson xarakteri va munosabatlari yetukligini aks ettirmaydi, chunki haqiqiy muvaffaqiyat chuqur bilim, halol mehnat, maqsad sari kurash va qat'iyat bilan qo'lga kiritiladi. Farzandlarini haddan tashqari, hatto, tajovuzkor shaklda himoya qilish "vertolyot" ota-onalar kutgan natijani emas, uning mutlaqo teskarisiga olib kelishi shubhasiz.

Bunday bolalar o'z xatolariga doimo panja orasidan qarashga o'rganib qolishadi. "Vertolyot" ota-onalar: "Bu dunyo raqobatdan iborat, men farzandlarimning hayotda barcha qulaylik va afzalliklarga ega bo'lishini xohlayman. Ular men ko'rgan qiyinchiliklarni ko'rmasin", - deyishadi. "Vertolyot" ota-onalarning o'z farzandini qurbon yoki kamsitilgan kishi sifatida ko'rsatishi - bu maktab yoki ijtimoiy soha xodimlarini bosim ostida ushlash uchun keng qo'llaniladigan "sevimli" usullaridan biri. Ayniqsa, o'qituvchi va maktab ma'muriyati bunday ota-onalarning bitmas-tuganmas talablari, "tashrif"lari, janjal-u turli ko'rinishdagi tajovuzlaridan ba'zan charchab ham ketadi. Buning natijasida ularning bolalari o'z maqsadlariga intilish va qat'iyat ko'rsatish o'rniga, barcha muvaffaqiyatsizliklari uchun boshqalarni ayblashni odat qilib oladi. Farzandlarini ortiqcha erkalab himoya qilishga odatlangan "vertolyot" ota-onalar, ming afsuski, aslida ularga pand berayotganini bilishmaydi. Ular bolalari yo'lidagi barcha qiyinchilikni bartaraf etish orqali "yengil hayot" tuhfa qilmoqchi bo'lishadi, lekin aslida farzandlarini mustaqil qaror qabul qilish, qiyinchiliklarga bardosh berish va muvaffaqiyatsi-

zliklardan saboq olish imkoniyatidan mahrum etishadi. Mukammal yozilgan tavsifnoma, soxta a'lo baho yoki ortiqcha himoya aslo muvaffaqiyat garovi emas. Haqiqiy muvaffaqiyat inson qat'iyati, jasorati va kurashchanligidan kelib chiqadi. "Vertolyot" ota-onalarning haddan tashqari aralashuvi esa bolalarini himoya qilish o'rniga, ularni hayotning chinakam sinovlariga bardosh bermaslik, chiday olmaslikka olib keladi.

Ota-onalik burchi va mas'uliyati farzandlarini faqat himoya qilishda emas, balki mustaqil va erkin shaxs sifatida ulg'ayishi, o'z fikriga ega bo'lishi, o'z oldiga aniq maqsad qo'yib, unga erishish uchun harakat qilishiga ko'maklashishdan iborat bo'lmog'i lozim. Yaxshi ota-ona farzandi uchun shamolni to'xtatib qo'yish emas, aksincha, unga shamolga qarshi uchishda qanotlaridan qanday foydalanishni o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

2. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.

3. Malla Ochilov. Muallim – qalb me'mori. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.

4. Goleman, D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 1995.

5. Cline, F. W., Fay, J. Parenting with Love and Logic: Teaching Children Responsibility. – Colorado Springs: NavPress, 1990.

6. Levine, M. The Price of Privilege: How Parental Pressure and Material Advantage Are Creating a Generation of Disconnected and Unhappy Kids. – New York: HarperCollins, 2006.